agentics.

wash.agentics.uz

Agentics Wash foydalanuvchi qo'llanmasi

Avtomoyka kassasi, smena, xodim ulushi, mijoz bazasi va Telegram xabarlari — tizimdan foydalanish tartibi.

v1.0 · 2026-09
Qo'llanma versiyasi

@AgenticsIdBot
Kirish va parol tiklash

Moyka boti
Mijoz va xodim xabarlari

Mundarija

01 Tizim haqida
Kimga, nima uchun, asosiy tushunchalar va ekranlar

02 Kirish va hisob
Agentics ID, vaqtinchalik parol, Telegram orqali tiklash, kod bilan kirish

03 Rollar va xodimlarni qo'shish
Ega, Administrator, Xodim; «Kirish hisoblari», taklif havolasi

04 Kassa: yuvishni ochishdan yopishgacha
Raqam → xizmat → xodim → to'lov, chegirma, qarz, offline rejim

05 Smena, xarajatlar va navbat
Smena ochish va yopish, kutilgan naqd, xarajat, jonli navbat

06 Mijozlar, mashinalar va katalog
Mijoz bazasi, segmentlar, qarz, klasslar va narxlar, Excel import

07 Xodimlar va ulush
Ulush qoidalari, balans, to'lovlar, «Mening ishim» ekrani

08 Boshqaruv, hisobotlar, aloqa va sozlamalar
Boshqaruv paneli, hisobotlar, aksiyalar, AI takliflari, filiallar, rollar

09 Telegram
Moyka boti: mijozni ulash, xodimni ulash, xabarlar, mini-app

10 Ko'p so'raladigan savollar
Nosozliklar va yechimlar

01 · TIZIM HAQIDA

Kassa, mijozlar va hisobot — bitta ekranda

Agentics Wash — avtomoykalar uchun onlayn tizim. U daftar va Excel o'rnini bosadi: mashina raqamini kiritasiz — mijoz, klass va narx o'zi topiladi; smena yopilganda kassa va yuvuvchilar ulushi tayyor bo'ladi.

Tizim nimani hal qiladi

Tez kassa
Raqam → xizmat → to'lov: uch bosishda yuvish ochiladi, internetsiz ham ishlaydi.

Mijozlar bazasi
Har mashinaning tarixi, doimiy va uxlab qolgan mijozlar, qarzdorlar, Telegram orqali eslatma.

Hisobot va nazorat
Kunlik tushum, xarajat, sof foyda va yuvuvchilar ulushi — bir bosishda, Excel va PDF'ga.

Asosiy tushunchalar

Avtomoyka (tenant)	Sizning moykangiz. Ma'lumotlar faqat sizniki — boshqa moyka uni ko'rmaydi.
Filial	Moyka manzili. Smena, kassa va kameralar filialga bog'lanadi. Tarifga qarab bir yoki bir nechta filial.
Yuvish (buyurtma)	Bitta mashinaga ochilgan chek: xizmatlar, xodimlar, to'lov. Holatlari: `Navbatda` → `Yuvilyapti` → `Tayyor` → `Yopilgan` (yoki `Bekor qilingan`).
Smena	Kassirning ish davri: boshlang'ich naqd bilan ochiladi, sanalgan naqd bilan yopiladi. Bir filialda bir vaqtda faqat bitta ochiq smena.
Klass	Mashina turi (sedan, SUV va h.k.). Xizmat narxi klassga qarab belgilanadi.
Ulush	Yuvuvchining har yuvishdan oladigan qismi. Qoida bo'yicha avtomatik hisoblanadi, to'lov qilinganda balansdan ayriladi.
Segment	Mijozning avtomatik yorlig'i: Yangi, Faol, Doimiy, Uxlagan, Yo'qolgan, VIP. Aksiya yuborishda shu bo'yicha tanlanadi.

Asosiy ekranlar (chap menyu)

Menyu	Nima uchun	Kim ko'radi
`Kassa`	Yuvish ochish, to'lov, chegirma, yopish. Bosh sahifa.	Ega, Administrator, Xodim
`Navbat`	Bugungi ochiq yuvishlar jonli ro'yxati.	Hamma
`Mijozlar`	Mijozlar, mashinalari, qarz va tashrif tarixi.	Hamma
`Smena`	Smena ochish/yopish, to'lovlar va xarajatlar yig'indisi.	Hamma (yozish — Ega, Administrator)
`Mening ishim`	Xodimning telefondagi ekrani: bugungi navbat, balans, smenaga kirish.	Hamma
`Boshqaruv paneli`	Kun/hafta/oy ko'rsatkichlari, grafiklar, top xizmatlar va xodimlar.	Ega, Administrator
`Xodimlar`	Balans, KPI, to'lovlar; `Ulush qoidalari`, `Kirish hisoblari`.	Ega, Administrator
`Hisobotlar`	Yuvishlar, moliya, xarajatlar, qarzdorlar, smenalar, xizmatlar, mijozlar; Excel/PDF.	Ega, Administrator

Menyu	Nima uchun	Kim ko'radi
Aloqa	Aksiyalar, AI takliflari, Aloqa jurnali.	Ega, Administrator
Sozlamalar	Foydalanuvchilar, Rollar, Filiallar, Kameralar, Katalog, Import, Ulush qoidalari, Kanallar.	Ega (qisman Administrator)

Tarif va imkoniyatlar
Ba'zi bo'limlar tarifga bog'liq. Tarifingizda yo'q imkoniyat menyuda ko'rinmaydi, ochishga urinilsa «Ushbu imkoniyat tarifingizda yo'q» xabari chiqadi. Joriy tarif yuqori o'ngdagi foydalanuvchi menyusida (Tarif) ko'rinadi. Sinov muddatida ekranning yuqorisida «Sinov muddati: N kun qoldi» yozuvi turadi.

Tarif	Foydalanuvchilar	Filiallar	Aksiya / oy	AI chaqiruvi / oy	Qo'shimcha imkoniyatlar
Start	3	1	2	100	Kassa, mijozlar, Excel import, ulush, hisobotlar va eksport, Telegram bot, SMS, shtamp, AI kunlik hisobot
Standart	10	2	cheksiz	1000	Start + AI qaytarish va anomaliya, AI yordamchi, audit jurnali, ko'p filial. 14 kun sinov
Pro	cheksiz	cheksiz	cheksiz	5000	Standart + kamera (raqam tanish, sanagich — ishlab chiqilmoqda), AI narx maslahatchisi. 14 kun sinov

Til va ko'rinish

Til (o'zbek lotin / o'zbek kirill / rus) va tungi rejim kirish sahifasida ham, ilova ichida yuqori o'ng burchakda ham almashtiriladi. Foydalanuvchi menyusi → Profil sahifasida rang aksenti, tema va til saqlanadi; shu yerda sizga berilgan barcha ruxsatlar ro'yxati ham ko'rinadi.

02 · KIRISH VA HISOB

Bitta Agentics ID — barcha mahsulotlar


Tizimga kirish Agentics ID (id.agentics.uz) orqali. Parol ilovaga tegmaydi — u faqat xavfsizlik xizmatida kiritiladi. Bir hisob bilan Agentics'ning boshqa mahsulotlariga ham (agar sizga ruxsat berilgan bo'lsa) kirasiz.

Birinchi kirish

1. **Manzilni oching.**
   Brauzerda `https://wash.agentics.uz`. Kirish sahifasida Kirish tugmasini bosing — sizni id.agentics.uz ga o'tkazadi.
2. **Login va vaqtinchalik parolni kiriting.**
   Ularni moyka egasi beradi (3-bob). Login — telefon raqamingiz.
3. **Parolni almashtiring.**
   Vaqtinchalik parol bilan birinchi kirishda tizim yangi parol qo'yishni majburiy so'raydi. Bu normal: boshlang'ich parolni sizga boshqa odam bergan, shuning uchun u vaqtinchalik.
4. **Kabinet ochiladi.**
   Kassir uchun darhol Kassa ekrani, boshqalar uchun ham bosh sahifa shu.

Telegram'ni darhol ulang

Parolni unutganda tiklash va kod bilan kirish faqat **@AgenticsIdBot** ga ulangan raqam uchun ishlaydi. Botni oching, Start bosing, so'ng Telefonni ulashish tugmasini bosing — bot «Ulandi» deydi. Raqamni qo'lda yozib bo'lmaydi: faqat tugma orqali yuborilgan o'z kontaktingiz qabul qilinadi.



Parolni unutganda

1. **«Parolni unutdim».**
   Kirish sahifasida (id.agentics.uz) Parolni unutdim ni bosing va telefon raqamingizni kiriting.
2. **Kodni oling.**
   @AgenticsIdBot ga 6 xonali kod keladi. Kod 5 daqiqa amal qiladi; 3 marta noto'g'ri kiritilsa bekor bo'ladi.
3. **Yangi parol qo'ying.**
   Shundan keyin boshqa barcha qurilmalardagi sessiyalar uziladi — bu ataylab.

Qoida	Qiymat
Kod uzunligi	6 raqam
Kod amal qilish muddati	5 daqiqa
Noto'g'ri urinish	3 marta, keyin kod bekor bo'ladi
Qayta so'rash	15 daqiqada 5 martagacha

> **Sahifa har doim bir xil javob beradi**
> «Agar raqam ulangan bo'lsa, kod yuborildi». Kod kelmasa — raqamingiz botga ulanmagan yoki boshqa raqam kiritilgan. Avval botda `Telefonni ulashish` ni bajaring.

Parolsiz kirish (kod bilan)

Kirish sahifasida `Kod bilan kirish` ni bosing, telefon raqamini kiriting, botga kelgan kodni yozing — kirdingiz. Chegaralar yuqoridagi jadval bilan bir xil. Parol tiklash kodi bilan kirib bo'lmaydi va aksincha. Hisobingizda vaqtinchalik parol bo'lsa, kod bilan kirgandan keyin ham parol almashtirish sahifasi ochiladi.

Bot buyruqlari (@AgenticsIdBot)

Buyruq	Nima qiladi
`/start`	Hisobni ulash (ulangan bo'lsa holatni ko'rsatadi)
`/unlink`	Bog'lanishni uzish — kod endi kelmaydi
`/help`	Qisqa yordam

Kirishda ko'rinishi mumkin bo'lgan holatlar

Ekran	Ma'nosi	Nima qilish kerak
«Hisobingiz moykaga bog'lanmagan»	Hisob bor, lekin hech qaysi avtomoyka kabinetiga biriktirilmagan	Moyka egasidan sizni `Kirish hisoblari` da qo'shishni so'rang
«Obuna faol emas»	Obuna to'xtatilgan yoki muddati tugagan	To'lovni amalga oshiring yoki `Faqat o'qish rejimida davom etish` ni tanlang — ma'lumot ko'rinadi, o'zgartirish rad etiladi
«Tasdiqlanmagan sessiya» belgisi	Internet yo'q, sessiya qurilma keshidan tiklandi	Ishlashda davom eting: amallar offline navbatga yoziladi, aloqa qaytganda yuboriladi
«Bu amal uchun ruxsatingiz yo'q»	Rolingizda bu ruxsat yo'q	Egadan rolni tekshirishni so'rang (3-bob)

Chiqish: yuqori o'ngdagi avatar → `Chiqish`.

03 · ROLLAR VA XODIMLARNI QO'SHISH

Kim nimani ko'radi

Wash'da uchta tizim roli bor. Rol xodimga hisob berilganda tanlanadi va keyin moyka egasi uni `Sozlamalar → Rollar` da nozik sozlashi mumkin.

Ega

`owner`

Barcha ruxsatlar. Xodimlarga hisob beradi, rollar, filiallar, kanallar, kameralar va tarifga oid hamma narsani boshqaradi. «Kirish hisoblari» da **Moyka egasi** deb ataladi.

Administrator

`admin`

Kassir/administrator. Kassa, smena, xarajat, mijozlar, katalog va narxlar, import, ulush qoidalari, hisobotlar va eksport, aksiyalar/AI/jurnalni ko'rish. «Kirish hisoblari» da **Kassir**.

Xodim

`washer`

Yuvuvchi. Kassa va navbatni ko'radi, yuvishni o'ziga oladi, boshlaydi va tugatadi, smenaga kiradi/chiqadi, o'z balansini ko'radi. «Kirish hisoblari» da **Moyshchi**.

Ruxsatlar taqsimoti

Imkoniyat	Ega	Administrator	Xodim
Yuvish ochish, holatini o'zgartirish	ha	ha	ha
Chegirma, bekor qilish, to'lov qabul qilish	ha	ha	yo'q
Mijoz va mashina qo'shish, birlashtirish	ha	ha	faqat ko'rish
Smena ochish/yopish, xarajat kiritish	ha	ha	faqat ko'rish, smenaga kirish/chiqish
Katalog: klass, xizmat, narx	ha	ha	faqat ko'rish
Excel import	ha	ha	yo'q
Xodimlar balansi va KPI, ulush qoidalari	ha	ha	faqat o'zini (`Mening ishim`)
Xodimga to'lov qayd etish	ha	faqat ko'rish	yo'q
Boshqaruv paneli, hisobotlar, eksport	ha	ha	yo'q
Aksiya yaratish va yuborish, AI taklifini tasdiqlash	ha	faqat ko'rish	yo'q
Foydalanuvchilar, rollar, filiallar (tahrirlash)	ha	faqat ko'rish	yo'q
Kanallar (Telegram bot, SMS)	ha	faqat ko'rish	yo'q
Kameralar	ha	yo'q	yo'q
Kirish hisoblari (hisob berish, taklif havolasi)	ha	yo'q	yo'q

Nozik sozlash

`Sozlamalar → Rollar` da ega `Yangi rol` yaratishi yoki mavjud rolni tahrirlab, ruxsatlarni belgilashi mumkin (masalan, administratorga «To'lovlar»ni yozish huquqini berish). Tizim rollari o'chirilmaydi; «Ega» roli o'zgartirilmaydi. Rol kodi keyin o'zgartirilmaydi. Tarifda yo'q ruxsatlar «Tarifingizda yo'q» deb ko'rsatiladi. Menyuda ko'rinish ham, tugma ham ruxsatga qarab chiziladi.

Xodimga hisob berish (moyka egasi)

Xodimlar sahifasida yuqori o'ngda Kirish hisoblari tugmasi bor (faqat egaga ko'rinadi). Sahifada ikki tab: Hisoblar va So'rovlar.

Usul 1 — qo'lda qo'shish

1. **Qo'shish.**
   Kirish hisoblari → Qo'shish. «Yangi hisob qo'shish» oynasi ochiladi.
2. **Ma'lumotlarni kiriting.**
   Telefon (majburiy), To'liq ism (yangi odam uchun kerak), Rol: Moyka egasi / Kassir / Moyshchi. Saqlash.
3. **Vaqtinchalik parolni oling.**
   Telefon bo'yicha hisob topilmasa yangisi yaratiladi va «Vaqtinchalik parol» oynasi chiqadi. Parol faqat HOZIR ko'rinadi — Nusxalash qilib xodimga xavfsiz yo'l bilan yetkazing, so'ng Yopdim, nusxa oldim. Birinchi kirishda xodimdan parolni almashtirish so'raladi.
4. **Mavjud hisob bo'lsa.**
   Telefon bo'yicha hisob topilsa u shunchaki moykaga qo'shiladi: «Mavjud hisob qo'shildi — uning paroli o'zgarmadi».

Usul 2 — taklif havolasi

1. **Havolani oling.**
   Kirish hisoblari → Taklif havolasi, Nusxalash. Havola 7 kun amal qiladi (Amal qiladi ustunida sana ko'rinadi).
2. **Xodimga yuboring.**
   Xodim havolani ochadi, @AgenticsIdBot da Telefonni ulashish tugmasini bosadi (havola ochilgach kontakt 15 daqiqa ichida kutiladi).
3. **So'rovni tasdiqlang.**
   Sizga botdan «Yangi qo'shilish so'rovi: ism, telefon» xabari keladi. So'rovlar tabida rolni tanlab Tasdiqlash yoki Rad etish. Bir odam — bitta ochiq so'rov, dublikat yaratilmaydi.
4. **Xodim kiradi.**
   Tasdiqlangach xodim parolsiz, kod bilan kiradi (2-bob).

> **Havolaning o'zi huquq bermaydi**
> Xodim hisob oladi, lekin siz tasdiqlamaguningizcha moykaga kira olmaydi. Havola boshqa odamga uzatilsa ham u faqat so'rov yuboradi — rolni siz berasiz.

Hisoblar ro'yxatida

Ustunlar: Ism, Telefon, Rol, Holat, Belgilar (Telegram ulangan; «Parolni almashtirishi kerak»), Amallar: Parolni tiklash (yangi vaqtinchalik parol, eski sessiyalar uziladi) va Olib tashlash (odam shu mahsulotdan chiqariladi, hisobi o'chmaydi). O'z rolingizni o'zgartira olmaysiz; oxirgi administratorni olib tashlab bo'lmaydi. Boshqa tashkilotda ham ishlaydigan odamning parolini siz tiklay olmaysiz — u «Parolni unutdim» orqali o'zi tiklaydi.

Wash ichidagi foydalanuvchi kartochkasi

Xodim birinchi marta kirgach u Sozlamalar → Foydalanuvchilar ro'yxatida paydo bo'ladi. Foydalanuvchini tahrirlash oynasida: Yuvish ulushini oladi (yuvuvchi sifatida xodim ro'yxatida ko'rinadi), Rollar, Filiallar (bo'sh qoldirilsa — barcha filiallar), Til, Holat. Login va parol bu yerda emas — ular Agentics ID'da.

Tarif chegarasi

Foydalanuvchilar soni tarif limitiga yetganda «Tarif chegarasiga yetildi» xabari chiqadi (Start — 3, Standart — 10).

04 · KASSA

Yuvishni ochishdan yopishgacha

Kassa — bosh sahifa: kirgan zahoti ishlay boshlaysiz. Ekranning yuqorisida qidiruv, chapda mashina kartochkasi, o'ngda yuvish (chek).

Yuvish ochish

1. **Mashinani toping.**
   `Raqam, telefon yoki ism` maydoniga kamida ikki belgi kiriting (masalan, `01 A 123 AA`). Ro'yxatdan mashinani tanlang — kartochkada `Klass`, `Egasi`, `Tashriflar`, `Marka va model` ko'rinadi.

2. **Yangi mashina bo'lsa.**
   «Topilmadi» → `Yangi mashina qo'shish`. Oynada davlat raqami, klass, marka/model va egasi kiritiladi. Klass ko'rsatilmagan mashinada `Klass tanlash` tugmasini bosing — klasssiz narx topilmaydi («Bu klass uchun xizmat narxi yo'q»).

3. **Xizmatlarni belgilang.**
   `Xizmatlar` ro'yxatida narx tanlangan klass bo'yicha chiqadi. Kerakli xizmatlarni bosing — pastda jami summa yig'iladi.

4. **Xodimlarni biriktiring.**
   `Xodimlar` blokida yuvadigan xodimlarni belgilang (ulush shu bo'yicha hisoblanadi; xodim keyin telefonidan «Olaman» deb o'zi ham qo'shilishi mumkin).

5. **Oching.**
   `Yuvish ochish · summa`. Yuvish `Navbatda` holatida yaratiladi va tartib raqami oladi.

Yuvish davomida

Tugma	Nima qiladi	Qachon ko'rinadi
`Boshlash`	Navbatda → Yuvilyapti	Navbatda
`Tugatish`	→ Tayyor. Mijozning Telegram'i ulangan bo'lsa «Mashinangiz tayyor» xabari ketadi	Navbatda yoki Yuvilyapti (oraliq qadamni o'tkazib yuborish mumkin)
`To'lov`	«To'lov qabul qilish»: `Summa`, `Usul` (Naqd / Karta / O'tkazma), `Izoh`. Bir chekka bir necha to'lov mumkin — yarmi naqd, yarmi karta	Yopilmaguncha
`Chegirma`	`Summa` va `Sabab` majburiy: Taklif uchun, Shtamp, Aksiya, Qo'lda, Abonement. «Qo'lda» bo'lsa izoh ham	Yopilmaguncha
`Bekor qilish`	Sabab majburiy. Bekor qilingan yuvish qayta ochilmaydi	Yopilmaguncha
`Boshlash` (Tayyor holatida)	Tayyor → Yuvilyapti: qayta yuvish kerak bo'lsa, hisob yopilmasdan turib	Tayyor
`Yopish`	Tayyor → Yopilgan. Chek yopiladi, mijozga Telegram'da chek ketadi, shtamp yoziladi, xodim ulushi hisobga tushadi	Tayyor

Tugma	Nima qiladi	Qachon ko'rinadi
Yangi yuvish	Ekranni tozalab keyingi mashinaga o'tadi	Yopilgan yoki Bekor qilingan

Qarz va yopish

To'lanmagan qoldiq bilan Yopish bosilsa, qoldiq mijoz balansiga qarz bo'lib yoziladi. Buning uchun mashinaga egasi (mijoz) biriktirilgan bo'lishi shart — «Qarzga yozish uchun mijoz kerak». Yopilgan chek qaytarilmaydi va o'zgartirilmaydi.

Internet yo'q bo'lsa

Kassa offline ishlaydi: ekranda «Internet yo'q — kassa offline ishlayapti» yozuvi va Yuborilmagan hisoblagich chiqadi. Yuvish ochish, holat o'zgartirish va to'lovlar qurilmadagi navbatga yoziladi; aloqa qaytganda o'zi yoki Sinxronlash tugmasi bilan serverga ketadi. Server rad etgan buyruqlar «N ta buyruq qabul qilinmadi» deb ko'rsatiladi — ularni ko'rib, Tushunarli bosing va kerak bo'lsa qayta kiriting.

Planshetni tozalamang

Navbat qurilma xotirasida turadi: sahifani yangilash yoki planshet o'chib qolishi navbatni yo'qotmaydi. Brauzer ma'lumotlarini tozalash esa yuborilmagan buyruqlarni o'chirib yuboradi — avval sinxronlang.

«Kelgan mashinalar» bloki

Kamera ulangan filialda (Pro tarif, ishlab chiqilmoqda) kassa yuqorisida raqami tanilgan mashinalar kartochkasi chiqadi: oxirgi xizmatlar, qarz, shtamp holati yoki «Sovg'a tayyor». Ochish — o'sha mashinaga yuvish ochadi; Bu men emas — kartochkani yopadi.

Smena: kassadagi pul hisobi

Smena kunning moliyaviy ramkasi: boshlang'ich naqd bilan ochiladi, ichida to'lovlar va xarajatlar yig'iladi, sanalgan naqd bilan yopiladi. Farq shu yerda ko'rinadi.

Smena ochish

1. **Smena sahifasi.**
   Chap menyuda `Smena`. Ochiq smena bo'lmasa «Ochiq smena yo'q» va `Smena ochish` tugmasi.
2. **Boshlang'ich naqd.**
   Kassadagi pulni sanab `Boshlang'ich naqd` ga kiriting (manfiy bo'lmasin). Kerak bo'lsa smenadagi xodimlarni belgilang.
3. **Ochildi.**
   Bir filialda bir vaqtda faqat bitta ochiq smena bo'ladi — ikkinchi kassir «Bu filialda ochiq smena bor» xabarini oladi.

Smena davomida

Sahifada jonli yig'indi: `Yuvishlar` (soni), `Tushum`, `Qarzga yozilgan`, `To'lovlar` (usul bo'yicha: naqd, karta, o'tkazma) va `Xarajatlar`.

Xarajat kiritish

1. **Xarajat qo'shish.**
   `Kategoriya` (Kimyoviy vositalar, Kommunal, Ijara, Oylik, Ta'mir, Boshqa), `Summa`, `Usul` (Naqd / Karta), `Izoh`.
2. **Saqlash.**
   Xarajat ochiq smenaga avtomatik bog'lanadi — smenani qo'lda tanlash shart emas. Xato kiritilgan xarajatni faqat smena ochiq ekan o'chirish mumkin.

Smenani yopish

1. **Kassani sanang.**
   `Smenani yopish` → oynada `Kutilgan naqd` ko'rinadi. Formula: **boshlang'ich naqd + naqd to'lovlar − naqd xarajatlar**. Karta va o'tkazma kassadagi pulga tegmaydi, shuning uchun hisobga kirmaydi.
2. **Sanalgan naqdni kiriting.**
   `Sanalgan naqd` va kerak bo'lsa `Izoh`. `Farq` avtomatik.
3. **Yopildi.**
   Smenadagi xodimlarning chiqish vaqti belgilanadi (davomat shundan). Yopilgan smena o'zgartirilmaydi; uning hisoboti `Hisobotlar → Smenalar` da PDF sifatida yuklanadi.

> **Nazorat**
> Kassa farqi 20 000 so'mdan oshsa, kunlik AI anomaliya agenti (tarifda bo'lsa) egaga «E'tibor bering» xabarini yuboradi. Xodimga naqd to'lov (7-bob) ham «Oylik» kategoriyasida xarajat bo'lib smenaga tushadi.

Navbat ekrani

`Navbat` — bugungi ochiq yuvishlar jadvali: №, raqam, mijoz, holat, summa, vaqt. Yuqorida aloqa belgisi: `Jonli` (o'zgarishlar darhol ko'rinadi), `Ulanmoqda`, `Aloqa yo'q`. Ekranni zalda televizor yoki ikkinchi planshetda ochib qo'yish mumkin — bosilmasdan yangilanadi.

Mijoz bazasi va narxlar

Har mashina va egasi bazada bir marta yoziladi — keyin har tashrif tarixga tushadi, segment o'zi hisoblanadi, qarz kartochkada turadi.

Mijozlar ro'yxati

`Mijozlar` sahifasi: qidiruv `Ism yoki telefon`, `Faqat qarzdorlar` filtri. Ustunlar: Ism, Telefon, Segment, Tashrif, Sarflagan, Balans, Mashina, Oxirgi tashrif. Qatorni bosib mijoz kartochkasini oching: `Mashinalari` ro'yxati va `Qarzni yopish` tugmasi — buyurtmasiz to'lov qabul qilib qarzni yopadi («Mijozda qarz yo'q» bo'lsa tugma ishlamaydi).

Mijoz qo'shish: `Mijoz qo'shish` → `Ism`, `Telefon` (+998 XX XXX-XX-XX). Bir telefon — bir mijoz: «Bu telefon boshqa mijozga biriktirilgan». Bir davlat raqami — bir mashina.

Segmentlar (avtomatik, har kuni yangilanadi)

Segment	Qoida
`Yo'qolgan`	90+ kun kelmadi
`Uxlagan`	30+ kun kelmadi — qaytarish aksiyasi uchun ro'yxat
`VIP`	Sarf bo'yicha eng yuqori 5 % va hali kelib turadi
`Doimiy`	90 kunda 4 va undan ko'p tashrif
`Yangi`	Bitta (yoki hali nol) tashrif
`Faol`	30 kun ichida kelgan, 2 va undan ko'p tashrif

Katalog: klasslar, xizmatlar, narxlar

`Sozlamalar → Katalog`. Uch bo'lim: `Mashina klasslari`, `Xizmatlar`, `Narxlar`.

1. **Klass qo'shish.**
   `Klass qo'shish` → kod va nom (boshlang'ich to'plam: sedan, hatchback, SUV, miniven, yuk mashinasi). Klass kodi takrorlanmaydi.
2. **Xizmat qo'shish.**
   `Xizmat qo'shish`: nom, kategoriya (boshlang'ich to'plam: Yuvish, Salon, Kuzov, Qo'shimcha), davomiylik (daqiqa), faza soni (guruhli yuvishda ulushni faza bo'yicha bo'lish uchun), `Klass narxi` — ha/yo'q, faol, tartib.
3. **Narx qo'yish.**
   `Narx qo'yish`: xizmat, klass (yoki `Hamma klass` — klassga bog'liq bo'lmagan xizmat uchun), narx, `Qachondan`. Eski narx tarixda qoladi — yopilgan cheklar o'zgarmaydi.

> **Kategoriyani o'chirish**
> Ichida xizmat bor kategoriya o'chirilmaydi — avval xizmatlarni boshqa kategoriyaga ko'chiring.

Excel'dan import

1. **Faylni tanlang.**
   `Sozlamalar → Import` → `Fayl tanlang` (Excel). `Ustunlarni ko'rish` bosilgach fayl ustunlari chiqadi.

2. **Ustunlarni moslashtiring.**
   Har ustunga maydon: Ism, Telefon, Davlat raqami, Marka/model, Qarz, Izoh. Telefon yoki davlat raqami ustunidan kamida bittasi majburiy.

3. **Import qiling.**
   `Dublikatlarni birlashtirish` belgisi bilan mavjud mijozlar takrorlanmaydi. `Import qilish` → natija: jami qator, yangi mijoz, yangi mashina, birlashtirildi, o'tkazib yuborildi, xato; muammoli qatorlar ro'yxati.

07 · XODIMLAR VA ULUSH

Yuvuvchi qancha oladi

Ulush har yuvish yopilganda qoida bo'yicha avtomatik hisoblanadi. Ega qoidalarni belgilaydi, balansni ko'radi va to'lovni qayd etadi; xodim o'z balansini telefonida ko'radi.

Ulush qoidalari

Xodimlar → Ulush qoidalari (yoki Sozlamalar → Ulush qoidalari). Yangi qoida: nom, tur, qiymat, bo'lish usuli, faol, tartib. Bitta qoida Sukut qilish bilan sukut bo'ladi — qoidasi biriktirilmagan xodimga o'sha qo'llanadi. Boshlang'ich to'plam: «Standart ulush (40%)», «Yordamchi (25%)», «Qat'iy oylik».

Tur	Ma'nosi
Xizmatdan foiz	Har xizmat summasidan foiz (eng ko'p ishlatiladi)
Har xizmatga qat'iy	Har xizmat uchun qat'iy summa
Chekdan foiz	Chegirmadan keyingi butun chek summasidan foiz
Qat'iy oylik	Yuvishdan ulush yo'q — oylik to'lovlar bilan yuritiladi
Aralash	Har xizmatga qat'iy summa + Foiz qismi

Bir yuvishda bir necha xodim bo'lsa ulush Bo'lish usuli bo'yicha taqsimlanadi: Teng, Og'irlik bo'yicha, Faza bo'yicha (har faza o'z xodimiga). Uch xodimga bo'linganda tiyinlar yo'qolmaydi — yig'indi doim yuvish ulushiga teng.

> **Qoida o'zgarsa**
> Yopilgan yuvishlardagi ulush qayta hisoblanmaydi — o'sha paytdagi qoida nusxasi chekda qoladi. Ishlatilayotgan yoki sukut qoidasi o'chirilmaydi.

Xodimlar sahifasi

Xodimlar → ikki tab. Balans: Xodim, Qoida, Yuvishlar, Hisoblangan, Bonus, To'langan, Balans. Ko'rsatkichlar: O'rin, Yuvishlar, Kuniga, O'rtacha chek, Qayta kelgan, Bekor, Daqiqa. Qatorni bosib xodim kartochkasini oching.

Xodim kartochkasida

1. **Qoidani biriktirish.**
   Qoidani biriktirish → Ulush qoidasi tanlang. «Qoida biriktirilmagan» bo'lsa sukut qoidasi ishlaydi.
2. **Yuvishlar va to'lovlar.**
   Davr bo'yicha yuvishlar (Sana, №, Mashina, Summa, Ulush) va to'lovlar ro'yxati.
3. **To'lash.**
   To'lash: Summa, Filial, Usul (Naqd / Karta), Davr boshi, Davr oxiri, Izoh. To'lov balansdan ayriladi va «Oylik» kategoriyasida xarajat bo'lib ochiq smenaga tushadi. Xato to'lovni bekor qilish uchun qatorni tanlang — bog'langan xarajat ham o'chadi; yopilgan smenaning to'lovi bekor qilinmaydi.

«Mening ishim» — xodimning telefondagi ekrani

Har xodim (yuvuvchi ham) `Mening ishim` ni ochadi. Yuqorida `Mening balansim` va foiz, `Smena` holati: `Smenadaman` / `Smenada emasman`.

1. **Smenaga kirish.**
   `Smenaga kirish` — filialda ochiq smena bo'lishi kerak («Smena topilmadi yoki ochilmagan»). Kun oxirida `Smenadan chiqish`; smena yopilganda chiqish avtomatik.

2. **Yuvishni olish.**
   `Bugungi navbat` da kassir ochgan yuvishlar: № , raqam, klass, xizmatlar. `Olaman` — yuvish sizga biriktiriladi va boshlanadi. Ikkinchi xodim ham «Olaman» desa birinchisi ro'yxatdan chiqmaydi — ulush bo'linadi.

3. **Boshladim / Tugatdim.**
   Navbatdagi yuvishga `Boshladim`, yuvilayotganiga `Tugatdim` — holat kassada ham o'zgaradi, mijozga «tayyor» xabari ketadi. Hisobni yopish kassirda qoladi.

Ega ekranlari

Kunni raqamda ko'rish, hisobotni Excel'ga chiqarish, mijozlarga aksiya yuborish va AI takliflarini tasdiqlash — hammasi shu bobda.

Boshqaruv paneli

Boshqaruv paneli, davr: Bugun / Hafta / Oy. Ko'rsatkichlar: Yuvishlar, Tushum, Olingan, Xarajat, Sof foyda, Hisoblangan ulush, O'rtacha chek, Qarzga berilgan, Mijozlar (yangi / qaytgan), Eng band soat. Grafiklar: Kunlik tushum, To'lov turlari. Jadvallar: Top xizmatlar, Top xodimlar, Filiallar. Birinchi yuvish yopilgunga qadar panel bo'sh.

Hisobotlar

Hisobotlar — tablar: Yuvishlar, Moliya (tushum, olingan, xarajat, ulush, marja), Xarajatlar, Qarzdorlar, Smenalar (kutilgan, haqiqiy, farq), Xizmatlar, Mijozlar (kohorta: yangi, 30/60/90 kunda qaytganlar). Hisobotlar joriy oy bo'yicha. Excel'ga chiqarish ekrandagi jadvalni faylga beradi; Smenalar tabida smenani tanlasangiz hisoboti PDF sifatida yuklanadi.

Aloqa → Aksiyalar

1. **Yangi kampaniya.**
   Nomi, Segment (Hamma mijoz / Yangi / Faol / Doimiy / Uxlab qolgan / Yo'qolgan / VIP), Kanal (Avtomat (Telegram) / Telegram / SMS), Konversiya oynasi (kun) 1–90, Matn (o'zbekcha) (majburiy, 2000 belgigacha), Matn (ruscha). Saqlash — qoralama.
2. **Yuborish.**
   Yuborish → «Yuborishni tasdiqlang»: nechta mijozga ketadi va shundan nechtasiga kanal ochiq. SMS tanlangan bo'lsa ogohlantirish: SMS pullik, har xabar moykaning Eskiz balansidan yechiladi. Ha, yuborilsin.
3. **Natija.**
   Ro'yxatda Qabul qiluvchi, Yetkazildi, Kelgan (konversiya oynasida tashrif buyurganlar). Yuborilgan kampaniya o'zgartirilmaydi. Oylik limit faqat yuborilganlar bo'yicha sanaladi (Start — oyiga 2).

Aloqa → AI takliflari

Agentlar har kuni ishlaydi va taklif chiqarsa shu yerda ko'rinadi: Kunlik hisobot, Qaytarish (uxlab qolgan mijozlarga taklif matni; kamida 5 mijoz bo'lganda), Anomaliya (kassa farqi 20 000 so'mdan ko'p, chekning 30 % dan ortig'i chegirma, kamera bilan kassa farqi, jim qolgan kamera), Yordamchi. Taklifni Tasdiqlash, Rad etish yoki Kampaniya yasash (qoralama yaratiladi, yuborishni siz bosasiz). Pastda AI xarajati: chaqiruvlar, tokenlar, narx va «Limitdan N ta qoldi».

Aloqa → Aloqa jurnali

Mijozlarga ketgan barcha xabarlar: Navbatga tushdi, Kanal, Xabar (Mashina tayyor, Chek, Shtamp progressi, Bepul yuvish, Qarz eslatmasi, Qaytish taklifi, Tug'ilgan kun, Aksiya, Kunlik hisobot, Ogohlantirish), Kimga, Holat (Navbatda / Yuborildi / O'tkazildi / Xato), Sabab. «O'tkazildi» — mijozning kanali ochiq emas (Telegram ulanmagan), bu nosozlik emas.

Sozlamalar

Filiallar	Yangi filial: Nom, Manzil, Telefon, Ish vaqti, Vaqt zonasi, Faol, Tartib. Manzil va ish vaqti mijozning Telegram mini-appida ko'rinadi. Filial soni tarifga bog'liq.

Rollar	3-bobda. Har rol — ruxsatlar to'plami.
Foydalanuvchilar	Xodim kartochkasi: rollar, filiallar, «Yuvish ulushini oladi», til, holat (Faol / Bloklangan).
Kameralar	Pro tarif, ishlab chiqilmoqda. `Yangi kamera`: Filial, Nom, Turi (Raqam o'qish / Sanagich), Izoh. Kamera kaliti faqat bir marta ko'rsatiladi; `Kalitni yangilash` eski qurilmani darhol to'xtatadi.
Kanallar	Telegram bot va SMS — 9-bobda.

09 · TELEGRAM

Moyka boti: mijozga chek, egaga hisobot

Wash'ning o'z Telegram boti bor (Agentics ID botidan alohida). Mijoz unga ulansa «mashinangiz tayyor», chek, shtamp va aksiya xabarlarini oladi; ega va administrator ulansa kunlik hisobot va ogohlantirishlar keladi.

Bot qanday ulanadi (ega)


`Sozlamalar → Kanallar`. Sukut bo'yicha «Umumiy bot ishlatilmoqda» — Agentics'ning umumiy boti sizning moykangiz nomidan xabar yuboradi, hech narsa sozlash shart emas. O'z botingizni ulash ixtiyoriy:


1. **Bot yarating.**
   Telegram'da @BotFather orqali bot yarating va tokenni oling.
2. **Tokenni kiriting.**
   `Telegram bot` blokida `Bot tokeni (@BotFather)` maydoniga token → `Saqlash`. Token tekshiriladi, shifrlab saqlanadi, webhook o'zi ro'yxatdan o'tadi: «Bot ulandi», «Webhook ro'yxatdan o'tdi — bot mijozlarning xabarini oladi». Botda `Kabinet` menyu tugmasi (mini-app) paydo bo'ladi.
3. **Bekor qilish.**
   Maydonni bo'sh yuborsangiz o'z boti o'chiriladi va umumiy botga qaytiladi — mijozlar xabarsiz qolmaydi.

Xuddi shu sahifada `SMS (Eskiz)`: Eskiz login, parol, jo'natuvchi nomi; `Balansni tekshirish`. SMS — Telegram'i yo'q mijozlar uchun zaxira kanal, puli moykaning Eskiz hisobidan yechiladi.

Mijozni ulash

Mijoz moyka botini ochadi (moykadagi QR yoki havola orqali), `Start` bosadi. Bot uni kassadagi telefon raqami bo'yicha topadi — shuning uchun mijozning telefoni avval `Mijozlar` da yozilgan bo'lishi kerak. Bot mijoz yaratmaydi.






Faqat o'z kontakti

Telefon kitobidan boshqa odamning kontakti yuborilsa bot qabul qilmaydi va o'z raqamini qaytadan so'raydi. Mijoz boshqa Telegram akkauntidan qayta ulansa eski bog'lanish almashadi — xabar ikki chatga ketmaydi. Mijoz botni bloklasa yuborish to'xtaydi. Bot tili — mijozning Telegram tili (ruscha bo'lsa ruscha, qolgan hollarda o'zbekcha).

Mijozga keladigan xabarlar



Xabar	Qachon
Mashina tayyor	Kassir yoki xodim `Tugatish` bosganda
Chek	Kassir `Yopish` bosganda. Qarz bo'lsa «Qarz: ...» qatori qo'shiladi
Shtamp progressi / Bepul yuvish	Yopilgan yuvishdan keyin shtamp dasturi yoqilgan bo'lsa
Qarz eslatmasi, Qaytish taklifi, Tug'ilgan kun, Aksiya	Aksiya va AI agentlari orqali (8-bob)

Xabar matnlari shablonlarda saqlanadi va moykaga moslanishi mumkin (o'zbekcha va ruscha matn, kanal bo'yicha alohida — Telegram va SMS). O'rinbosarlar: `{{customer}}`, `{{plate}}`, `{{services}}`, `{{total}}`, `{{paid}}`, `{{number}}`, `{{date}}`.

Mini-app (mijoz kabineti)

Botdagi `Kabinet` tugmasi mijozga o'z sahifasini ochadi: `Shtamplar` («Yana N ta yuvish — keyingisi bepul» yoki «Keyingi yuvishingiz BEPUL»), `Qarz`, `Mashinalarim`, `Tarix` (oxirgi 20 tashrif), `Manzil va ish vaqti`. Sahifa faqat Telegram ichidan ochiladi; ulanmagan mijoz «Hali ulanmagan — botda kontaktni ulashing» xabarini ko'radi.

Xodimni ulash: kunlik hisobot va ogohlantirishlar

1. **Havolani oching.**
   `Sozlamalar → Kanallar` sahifasida «Kunlik hisobotni Telegram'da olish uchun havolani oching:» ostidagi shaxsiy havolani bosing (u faqat sizga tegishli — boshqaga bermang).

2 **Start.**

Bot javob beradi: «Aziz, Telegram ulandi ✅ Kunlik hisobot va ogohlantirishlar shu chatga keladi». Sahifada «Telegram'ingiz ulangan» yozuvi chiqadi.

Moyka boti

📊 Kunlik hisobot — 12.09.2026

Yuvishlar: 38
Tushum: 2 640 000 so'm
Olingan: 2 540 000 so'm
Qarzga: 100 000 so'm
Xarajat: 310 000 so'm
Sof: 2 330 000 so'm
Eng ko'p: Tashqi yuvish
Kassa farqi: -15 000 so'm

Moyka boti

⚠️ E'tibor bering — 12.09.2026

Markaziy filial: kassada 45 000 so'm kam chiqdi.

Kunlik hisobot moyka vaqti bilan sukut bo'yicha 21:00 da, hisobotni ko'rish huquqi bor va Telegram'i ulangan xodimlarga ketadi (ega va administrator). AI yoqilgan bo'lsa raqamlar 3–4 gapli xulosa bilan keladi; AI bo'lmasa — yuqoridagi kabi ro'yxat. Raqamlarni AI hisoblamaydi, faqat matnga aylantiradi.

Nosozliklar va yechimlar

Ekranda ko'rgan xabar bo'yicha qidiring. Ro'yxatda bo'lmasa — qo'llab-quvvatlashga yozing.

Belgi	Sabab	Yechim
Kirish sahifasida kod kelmayapti	Raqam @AgenticsIdBot ga ulanmagan yoki bot bloklangan	Botni oching, `/start`, Telefonni ulashish
«Kod noto'g'ri» uch marta / kod eskirgan	Kod bekor bo'ldi yoki 5 daqiqa o'tdi	Qaytadan Parolni unutdim bosib yangi kod oling
Bot: «Bu raqam Agentics ID'da yo'q»	Ega sizni hali qo'shmagan yoki boshqa raqam bilan qo'shgan	Ega Kirish hisoblari da raqamni tekshirsin
«Hisobingiz moykaga bog'lanmagan»	Hisob bor, moykaga qo'shilmagan	Ega Kirish hisoblari → Qo'shish orqali telefon bo'yicha qo'shsin
«Bu amal uchun ruxsatingiz yo'q»	Rolda bu ruxsat yo'q	Ega Sozlamalar → Rollar da ruxsatni bersin yoki rolni almashtirsin
«Ushbu imkoniyat tarifingizda yo'q»	Bo'lim tarifga kirmaydi	Tarifni yuqoriroqqa o'zgartirish uchun Agentics'ga murojaat qiling
«Tarif chegarasiga yetildi»	Foydalanuvchi, filial, aksiya yoki AI limiti tugadi	Ortiqcha yozuvni olib tashlang yoki tarifni oshiring
«Obuna faol emas» / faqat o'qish rejimi	To'lov muddati o'tgan yoki obuna to'xtatilgan	To'lovni amalga oshiring; ma'lumot yo'qolmaydi
«Bu klass uchun xizmat narxi yo'q»	Katalogda tanlangan klass uchun narx qo'yilmagan	Katalog → Narxlar → Narx qo'yish
«Qarzga yozish uchun mijoz kerak»	Mashinaga egasi biriktirilmagan	Mashina kartochkasida mijozni qo'shing, so'ng yoping
«Bu holatdan bunday o'tish mumkin emas»	Yopilgan yoki bekor qilingan chek o'zgartirilmoqda	Yopilgan chek o'zgarmaydi — yangi yuvish oching
«Bu filialda ochiq smena bor»	Smena allaqachon ochiq	Smena sahifasida ochiq smenada ishlang yoki uni yoping
«Yopilgan smenaning xarajatini o'chirib bo'lmaydi»	Smena yopilgan, farq imzolangan	Tuzatishni keyingi smenada izoh bilan kiriting
«Smena topilmadi yoki ochilmagan» (Mening ishim)	Kassir hali smena ochmagan	Kassir Smena ochish qilsin, so'ng Smenaga kirish
«Internet yo'q — kassa offline ishlayapti»	Aloqa uzilgan	Ishlang; aloqa qaytgach Sinxronlash. «N ta buyruq qabul qilinmadi» bo'lsa ro'yxatni ko'rib qayta kiriting

Belgi	Sabab	Yechim
«Yozuvni boshqa foydalanuvchi o'zgartirgan»	Ikki kishi bir yozuvni tahrirladi	Sahifani yangilang va qayta saqlang
Mijozga Telegram xabari bormayapti («O'tkazildi»)	Mijoz botga ulanmagan yoki botni bloklagan	Mijoz botda `Raqamni yuborish` qilsin; raqam kassadagi bilan bir xil bo'lsin
Bot: «Bu raqam bo'yicha mijoz topilmadi»	Telefon `Mijozlar` da yozilmagan	Kassir mijoz kartochkasiga telefonni kiritsin, mijoz qayta urinsin
«Telegram tokenni qabul qilmadi»	Token xato terilgan yoki bekor qilingan	@BotFather dan tokenni qayta oling
«Kanal ochiq emas» — SMS ketmayapti	Eskiz hisobi ulanmagan yoki balans yo'q	`Kanallar → SMS (Eskiz)` da login/parolni kiriting, `Balansni tekshirish`
Kunlik hisobot kelmayapti	Telegram ulanmagan yoki hisobot ruxsati yo'q	`Kanallar` sahifasidagi shaxsiy havola orqali ulaning
«Oxirgi administratorni olib tashlab bo'lmaydi»	Moykada bitta ega qolgan	Avval boshqa odamga «Moyka egasi» rolini bering

Qo'llab-quvvatlash: Agentics jamoasi · agentics.uz · +998 90 014 31 36, +998 97 537 53 55 · golib94jon@gmail.com